

**SAID AHMADNING IJODIY FAOLIYATINI ZAMONAVIY QABUL QILINISHI
VA HAJVIY ASARLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI.**

Sherpo'latova Malika Jahongir qizi

Samarqand davlat chet tillari institute

Sharq tillari fakulteti 4-kurs talabasi.

+998953369474

Annotatsiya. Ushbu maqola Said Ahmad faoliyati, muallifning ijodiy uslubini, asarlarini tahlil qilishda lingvopoetik jihatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Ular asarlarining mazmuni, til vositalari, kompozitsion tuzilishi va vositalarda ifodalanadigan milliy ma'naviyat Said Ahmad ijodining beqiyos qirralarini ko'rsatadi. Said Ahmad asarlarining bugungi kitobxon tomonidan qabul qilinishi, ularning dolzarbligi, hajviy matnlarda qo'llanilgan kinoya, piching, mubolag'a, so'z o'yini kabi lingvopoetik vositalar misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Said Ahmad, ijodiy faoliyati, zamonaviy qabul qilinishi, hajviyot, lingvopoetika, kinoya, badiiy til, piching, mubolag'a, so'z o'yini, ijtimoiy tanqid, estetik ta'sir.

Аннотация. Данная статья призвана раскрыть лингвопоэтические аспекты творчества Саида Ахмада, творческий стиль автора и провести анализ его произведений. Содержание его работ, языковые средства, композиционная структура и выраженная в них национальная духовность демонстрируют несравненные черты творчества Саида Ахмада. На примерах анализируется восприятие произведений Саида Ахмада современными читателями, их актуальность, а также лингвопоэтические средства, используемые в сатирических текстах, такие как ирония, тон, преувеличение и игра слов.

Ключевые слова. Саид Ахмад отметил творческую деятельность, современное восприятие, юмор, лингвопоэтику, иронию, художественный язык, интонацию, преувеличение, игру слов, социальную критику, эстетическое воздействие.

Abstract. This article serves to reveal the linguopoetic of Said Ahmad's work the author's creative style, and the analysis of his works. They show the unique aspects of Said Ahmad's work, the content of his works, the language means, the compositional structure, and the national spirituality expressed in the means. The reception of Said Ahmad's works by today's readers, their relevance, and the linguopoetic means used in humorous texts, such as irony, alliteration, exaggeration, and wordplay, are analyzed based on examples.

Keywords. Said Ahmad, Creative activity, modern reception, humor, linguopoetis, irony, artistic language, pun, exaggeration, wordplay, social criticism, aesthetic impact.

Kirish.

O‘zbek xalq yozuvchisi Said Ahmad 1920 – yil 10- iyunda Toshkent shahrida tavallud topgan. Uning bolaligi Elbek, Oybek, G‘afur G‘ulom singari adiblar davrasida o‘tdi. U o‘zbek adabiyotida kichik nasr, xususan hikoya ustasi sifatida katta shuhrat qozongan atoqli adib va dramaturgdir. Uning “ Cho‘l burguti”, “Jimjitlik”, “ Turnalar”, “Hayqiriq”, “Qorako‘z majnun”, singari o‘nlab hikoyalarida sadoqat, mehr, odamgarchilik, ishonch, e‘tiqod singari ma‘naviy qadriyatlar ta‘sirchan aks ettirilgan. Yozuvchi hajviy hikoyalar yaratish bo‘yicha Abdulla Qahhor an‘analarini davom ettirgan ijodkordir. Uning “Sobiq”, “Qoplon”, “Bo‘ri ovi”, “Xandon pista” kabi ko‘plab hajviyalarida inson tabiatidagi qusurlar badiiy tatqiq etiladi. Said Ahmad ijodi bugungi kunda o‘zbek nasrining asosi sifatida yuksak qadrlanib, o‘tkir satira, xalqchil til va insoniy kechinmalarning mahoratli tasviri bilan zamonaviy o‘quvchilar va adabiyotshunoslar e‘tiborini tortmoqda. Yozuvchining “Ufq” trilogiyasi kabi yirik asarlari inson qadri, urush davri fojialari va ma‘naviy yuksalish mavzularida yangicha talqin qilinmoqda. Yozuvchi asarlaridagi sodda, ammo ta‘sirchan til va hayotiy qahramonlar zamonaviy kitobxonlar tomonidan yuqori baholanadi. Said Ahmad asarlari orqali yosh avlodga tarixiy haqiqatlar, qiyinchiliklar va ma‘naviy meros yetkazilmoqda. Umuman olganda, Said Ahmad ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyoti talqinida milliy o‘zlikni anglash va badiiy mahorat maktabi sifatida qayta kashf etilmoqda.

Hozirgi paytda badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish nafaqat jahon tilshunosligi, balki o‘zbek tilshunosligining ham dolzarb masalasidan biridir. Lingvopoetika doirasidagi tushunchalar ba‘zida lingvistikaga, ba‘zida adabiyotshunoslikka daxldor degan yuzaki qarashlar ham kuzatilishi badiiy asar til materialini til yoki adabiyot ilmi nuqtai nazaridan o‘rganish natijasida yuzaga kelgan. Lingvopoetika - filologiyaning poetik tilni tadqiq etadigan sohadir.

Tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o‘rganuvchi tilshunoslik asrimizning 20-yillarida shakllandi va sistem -struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo‘ldi. Shuni aytib o‘tish kerakki, Ferdinand de Sossyur asos slogan XX asr sistem tilshunosligida o‘nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi, Ularda ulkan zamonaviy yutuqlar qo‘lga kiritildi . Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari tekshirilayotganda undagi har bir til hodisasiga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Har qanday asar davr va makon bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Tarixiy mavzudagi asar tilida muayyan zamon ruhini tashuvchi voqealarni

qaysi makonda, qanday muhitda yuz berayotganini oydinlashtiruvchi leksik- grammatik birliklar ishtirok etadi. Lingvopoetik strukturada muallifning kommunikativ niyati va maqsadi, hozirjavobligi, qahramon ruhiyati hamda xarakteriga xos bo'lgan jihatlar aks etadi. Badiiy asarni til vositalari orqali estetik, badiiy ta'sirini o'rganish ya'ni asarda ishlatiladigan so'zlar, iboralar, badiiy tasvir vositalari orqali muallif qanday ma'no va ta'sir yaratganini tahlil qilish lingvopoetik tahlil deyiladi. Lingvopoetik tahlilda asosan leksik qatlam ya'ni dialekt so'zlar, eskirgan so'zlar, o'zlashma va sinonim, antonimlar shuningdek badiiy tasvir vositalari, alliteratsiya, assonans kabi vositalarning asardagi o'rni ko'rib chiqiladi va kitobxon tomonidan tahlil qilinadi.

Tabiiyki, tilday murakkab hodisaning mohiyati va sinoatli qonuniyatlaridan mukammal xabardor bo'lmasdan turib, uning ming bir ma'no- mazmun jilolarda yashash manzili bo'lmish adabiyotni xolis va teran o'rganish yoki adabiyotning ming bir qonuniyatidan bexabar holda mazkur manzilni chin ilmiy taftish qilishga urinish samarasiz bir yumushdir.

Said Ahmadning "Qoplon" hikoyasini tahlil qiladigan bo'lsak, asar kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik, o'z manfaati yo'lida andisha – mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutishi, odamlarning amal kursisiga qarab munosabat ko'rsatishi kabi yaramas illatlar tanqidiga bag'ishlangan. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o'zini hali tanimagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo'llarini topib olgan, hech bir istiholasiz laganbardorligini oshkora ko'rsatish, xo'jayinini polini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan oriyatsiz bir shaxs qiyofasini ko'rsatib beradi. Tillayev ham, uning xotini ham Qurbonboyning kimligini anglamay, ularga qilib yurgan xizmatini yaxshilikka yo'yib yuradilar. Qurbonboy esa ishi bitguncha girdikapalak bo'lib, har qanday mayda – chuyda oilaviy yumushlarni orlanmay bajarib, yangi boshliq tayinlanishi bilan Tillayev xonadonidan batamom yuz buradi. Hattoki o'zi olib kelgan Qoplon ismli itni ham olib ketib, yangi rahbarga ham xuddi avvalgidek taqdim qiladi. Hikoya so'ngida Tillayev Qoplonni ko'rib " Bu itni taniyman ",- desa-da achchiq istehzo bilan aytilgan bu so'zni Qurbonboyga qarab aytadi. Demak " it " deb Qurbonboyini nazarda tutyapti. Yozuvchi bu bilan Qurbonboy kabi buqalamun kimsalar, ablah odamlarning jamiyatda, insonlar orasida o'rni bo'lishi kerak emas, degan g'oyani ilgari suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi - Toshent: Fan, 2008
2. O'rinboyev B. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. – Toshkent: O'qituvchi, 1990

3. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 2005
4. <https://uz.wikipedia.org>